

TIL VA TAFAKKUR

Jumanazarova Shodiya
O'zbekiston Milliy Universiteti
Xorijiy filologiya fakulteti talabasi.

Annotation: In this article, the relationship between language and culture, language and thought the linguistic and cultural significance of the language is discussed.

Keywords: Language and culture, language and thinking, linguocultural units, W. Humboldt.

Аннотация: В данной статье рассматривается взаимосвязь языка и культуры, языка и мышления. обсуждается лингвокультурное значение языка.

Ключевые слова: Язык и культура, язык и мышление, лингвокультурные единицы, В. Гумбольдт.

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va madaniyat, til va tafakkur munosabati tilning lingvokulturologik ahamiyati haqida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: Til va madaniyat, til va tafakkur, lingvomadaniy birliklar, V.Gumboldt fikrlari

Kirish

Dunyodagi barcha tillar ma'lum bir taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tadi. Uning rivojlanishi jamiyat bilan, tafakkur va madaniyat bilan chambarchas bog'liq. Insonning tafakkuri, dunyoqarashi, madaniyati uning tili orqali namoyon b o'ladi. Til va tafakkur, til va madaniyat munosabatlari haqida gap ketganda antropologik tilshunoslik va lingvokulturologiyaga e'tibor qaratish o'rinni bo'ladi. XIX asrning birinchi yarmida V.Gumboldt tomonidan zamonaviy antropologik tilshunoslikka asos solindi. U bir necha bor, til - bu shunday organki, inson yordamida o'z fikrini ifodalaydi deb ta'kidlagan. Bundan tashqari, nemis olimi ko'p marta til millat ruhini ifodalaydi va shakllantiradi, olam haqidagi milliy tasavvurni ko'rsatadi hamda turli tillarning mavjudligi, turli xalqlarda tafakkur obrazining xilma-xilligi asosida bo'lishini aytadi. V.Gumboldt tillarni qiyoslashga alohida e'tibor qaratishga chaqiradi, zero uning fikricha, "ularning farqi - bu nafaqat tovush va belgilarda, balki dunyoqarashda hamdir.

Til, jamiyat va madaniyat shunday uyg'unki, ularning taraqqiyoti bir-birisiz rivojlanmaydi. Til, madaniyat va jamiyatning o'zaro aloqasi tadqiqoti "til va tafakkur", "til va insonning ma'naviy faoliyati", "til va inson xulqi", til va jamiyat", "til va inson" kabi katta muammolar doirasida olib boriladi. Bu muammolarning har tomonlama o'rganilishi, til va madaniyatning o'zaro aloqasi jabhasini ajratish muhimligiga olib kelishi tabiiy, va shu asosda, ko'plab gnoseologik, psixologik, etnik va ijtimoiy hodisalarining til aspekti orqali erishiladigan, lingvognoseologiya, psixolingvistika, etnolingvistika va sosiolingvistikada birlashmagan holda mavjud bir qator muammolarni o'rganish mumkin bo'lgan lingvokulturologiya yo'nalishini paydo qiladi. Til va madaniyatning o'zaro munosabati spesifik muammolarining lingvokulturologiya tomonidan yechilishi ikki yo'nalishda amalga oshishi mumkin.

Til ijtimoiy hodisa bo'lib, muayyan bir xalqning ruhiyatni va tafakkur tarziga muvofiq tarzda yashaydi. Insonlarga xos ijtimoiy yoki individual ruhiyatni va tafakkurni til orqali namoyon bo'ladi. Insonlarning psixikasi ota-bobolaridan qolgan ruhiyat olamiga monand bo'ladi. Aytaylik, olmaning urug'ida olma daraxtining ruhi bor. Shu bois undan o'rik unmaydi. Yer bag'rida suv vositasida jonlantirilgan oq olmaning urug'idan oq olma unib chiqadi. Qizil olma emas. Shu bois insonlarning psixikasi ota-bobolarining ruhiyatiga mos-muvofiq bo'lib, shunga ko'ra ijtimoiy guruhlar paydo bo'ladi. Bir ijtimoiy guruhning ruhiyatni olami, uning umumiy qiyofasini, stereotipini ko'rsatib turadi. Ijtimoiy va individual ruhiyat muayyan xususiyatlarga ko'ra farqlanadi. Insonlar ruhiyatida hosil bo'ladigan chatishish ijtimoiy ruhiyatning parchalanishi va o'zgacha bir ruhiyat olamining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Aytaylik, mevalarni payvandlashdan ularning o'zgacha bir turlari paydo bo'lganidek. Inson psixikasining bir-biriga payvandlanishi asosan til vositasida amalga oshadi, chunki tilda inson ruhiyatni va tafakkur tarzi yashaydi. Aytaylik, ikki tilda o'zbek va rus tilida tafakkur yurituvchi shaxslarning psixikasida ikki millat ruhiyatiga xos belgilar yashaydi. Inson ruhiyatidagi o'zgarishlarga til va tafakkur faoliyati sabab bo'ladi. Chunki tilda shu til egalarining ruhiyatni, tafakkur tarzi yashaydi. Shu bois til, ruhiyat, tafakkur ijtimoiy mohiyat kasb etadi. Turli millat, elat, xalqlar bir-birining tilini o'rganishi asosida tafakkuri, ruhiyatida aralashuv, qorishish jarayonlari sodir bo'ladi. Inson psixikasi (ruhi) tafakkur bilan hamohang tarzda faoliyatda bo'ladi.

Olamni idrok etishda inson dastlab sezgilarga tayansa, keyinchalik tushunchalarning so'zga qoliplanishi asosida hosil bo'lgan til birliklariga tayanadi va ular vositasida fikr yuritadi. Ma'lumki, inson tafakkuridagi o'zgarishlar ruhiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ruhiyatdagi o'zgarishlar tafakkurda o'z aksini topadi. Inson tafakkuri fahmlash, idrok etish, bilish asosida shakllanadi. Tafakkur qilish bilimlarni qiyoslash, zidlash, analiz, sintez qilishdir. Ular asosida hosil bo'lgan xulosalar aql mahsulidir. Ong esa uning mohiyatini anglash asosida shakllanadi. Idrok etish, tushunish, fahmlashning asosiy vositasi ko'z va quloq bo'lsa, anglash vositasi yurak. Insonlar atrofdagi voqelikni kuzatar ekan, ular xususida fikr yuritadilar. Aytaylik, chumolining tinim bilmay harakatda bo'lishi, tulkinining ayyorona qiliqlari va hakazolarni kuzatish asosida har bir odam bulardan o'ziga xos tarzda saboq oladi. Kuzatishlar asosida hosil bo'lgan munosabatlar muayyan bilimlarga tayanadi. Bu bilimlar insonlarning muayyan ijtimoiy guruhga mansubligi va shu ijtimoiy guruhga xos bo'lgan milliy-madaniy qarashlari, tafakkur tarzi, tasavvur olami asosida shakllangan bo'ladi. Ularni tilda ifodalash ehtiyoji bilan turli xalqlarning milliy tafakkur tarzini namoyon qiluvchi til birliklari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, til tafakkur, jamiyat va madaniyat bilan uzviy bog'liq. Har bir jamiyatning, uning har bir a'zosi taffakuri va madaniyati tilda namoyon bo'ladi. Vaholanki har bir jamiyatning tilida uning mentaliteti aks etadi. Tilni lingvokulturologik tadqiq etishda etnolingvistika, etnopsixolinguistik, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokonseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi fanlarning ahamiyati beqiyosdir. Til sohibining etnik, psixologik va madaniy xususiyatlarini, uning ijtimoiy va kasbiy statuslari til taraqqiyotida katta o'rinn tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziev E.G. Umumiyyat psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. A.X.Югай, Н.А.Мираширова "Общая психология" – Ташкент 2014.
3. Hamroyev M., Muhammediva D. Ona tili. T., Moliya –iqtisodiyot. 2007.
4. Nurmonov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Ilm ziyo nashriyoti. 410-bet.

5. Раҳматуллаев Ш. Замонавий ўзбек тили. Тошкент-2008. 502 бет.
6. Tursunov I. Dardoq va dardoqliklar, “Namangan” nashriyoti, 2006.